



Xusanov
Murodjon
Sunnatullayevich

Qo'qon universiteti Exam Control
departamenti boshlig'i

ORCID ID: 0009-0005-4304-5801

MAMLAKATIMIZDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANISHINING USTUVOR YO'NALISHLARINI TAHLIL QILISH



Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarning tahlili yoritilgan. Mamlakatimiz xizmatlar bozoriga yangi xizmat turlarining kirib kelishi davr o'zgarishlariga moslashuvchan iqtisodiy tizimni yaratish, maqsadli va manzilli rivojlanish dasturlarini hamda yangi strategiyalarni shakllantirishda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan makroiqtisodiy-statistik tahlillarni amalga oshirishda ilg'or xalqaro andozalarni inobatga olgan holda o'ziga hos milliy yondashuvni ishlab chiqish asosiy vazifaga aylanmoqda.

Kalit so'zlari: ustuvor yo'nalish, xizmat ko'rsatish sohasi, milliy iqtisodiyot, makroiqtisodiy-statistik tahlillarni amalga oshirish, yangi xizmatlar turlari.



KIRISH

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi muhim omil – iqtisodiyotni modernizatsiya qilishdir. Demak, yangi texnologiyalarni faol joriy etish, infratuzilma va ko'nikmani (xizmat madaniyati, bilimlar nuqtai-nazaridan) rivojlantirish mamlakatda xizmatlar sohasining jadal o'sishiga yordam beradi.

Shu bilan birga, mamlakatimiz Hukumati tomonidan iqtisodiyotning turli tarmoqlariga, xususan, xizmat ko'rsatish sohasiga xorijiy investorlar faol jalb etilmoqda, bu esa tobora ko'proq yangi texnologiyalarni joriy etish va xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish uchun zarur tajribani o'zlashtirishga xizmat qilmoqda.

Yana bir muhim yo'nalish – sog'liqni saqlash xizmatlari. 2019 yilga nisbatan 2023 yilda sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi 5,3 trln. so'mga oshib, jami 8,4 trln. so'm tashkil etdi. Bu esa, xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushini 1,8 foizga yetkazishga xizmat qildi.

Ayni paytda respublika bo'yicha 1,3 mingdan ortiq shifoxona faoliyat ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, hududlarda qishloq oilaviy poliklinikalari tashkil etilib, ijtimoiy dorixonalar va kechayukunduz ishlaydigan tez tibbiy yordam, perinatal va qizlar salomatligini muhofaza qilish poliklinikalari xizmatlari yo'lga qo'yildi. Qishloq aholisiga besh tor ixtisoslik (akusher-ginekolog, jarroh, stomatolog, terapevt, pediatr) bo'yicha ixtisoslashtirilgan ambulatoriya yordami ko'rsatilib, ultratovush va laboratoriya tekshiruvlari ham tashkil etildi. Buning natijasida, qishloq aholisiga malakali ixtisoslashtirilgan ambulatoriya yordamini ko'rsatishga erishildi.

Bundan tashqari, tahlillar, O'zbekistonda xususiy tibbiyot muassasalari soning kundan-kunga ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Bu esa, o'z navbatida, tibbiyot sohasida sog'lom raqobatni yuzaga keltirib, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish va ularning narxini pasaytirish imkonini bermoqda.

Misol tariqasida, 2018 yilda "AKFA Medline" ko'p tarmoqli tibbiyot markazi ochilib, u respublikada "CERT International" mahalliy organi tomonidan sertifikatlangan birinchi tibbiy tashkilot bo'ldi. Mazkur organ faoliyatining vakolati va xolisligi Slovakiya Milliy akkreditatsiya xizmati (SNAS) tomonidan tasdiqlangan, "CERT International" muvofiqlik sertifikatlari esa dun-

yoning 120 dan ortiq mamlakatlarida tan olingan.

Shu davrda, boshqa o'nlab muassasalar, xususan, onkologiya, neyroxirurgiya, travmatologiya va ortopediya, allergologiya, nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi, nevrologiya, narkologiya, bolalar xirurgiyasi kabi yo'nalishlarda respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari tashkil etildi. Masalan, reproduktiv yoshdagi ayollar, homilador ayollar va bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish sifati va hajmini oshirish maqsadida Ikkinchi perinatal markaz foydalanishga topshirildi. U yetakchi klinikalar tajribasiga asoslangan eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan.

Birinchi qavatda ko'p tarmoqli klinika, yuqori qavatlarda bemorlar xonalari va umumiy amaliyot kabinetlari, shu jumladan neonatal intensiv terapiya bo'limi joylashgan. Bundan tashqari, Toshkent shahrida zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan Milliy bolalar tibbiyot markazi qurilib, foydalanishga topshirildi. Qiymati 130 mln. dollardan ziyod bo'lgan mazkur zamonaviy tibbiyot markazi Koreya Respublikasining Iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik jamg'armasi (EDCF) ko'magida tashkil etilgan. Markaz klinikasi kuniga 250 nafar bemorni qabul qilishga mo'ljallangan. Markaz magnit-rezonans tomografiya, multispiral kompyuter tomografiyasi, zamonaviy laboratoriya va saratonni oldindan aniqlaydigan zamonaviy diagnostika uskunalar bilan jihozlangan.

Tahlilimizni davom ettiradigan bo'lsak, iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining salmoqli qismini savdo xizmatlari (110,7 trln. so'm) tashkil etib, 2019-2023 yillar davomida umumiy hisobda 61,9 trln. so'mga yoki 1,4 barobarga oshgan.

Metodologiya


So'nggi yillarda O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasini ham jadal rivojlanayotganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, AKT infratuzilmasini rivojlantirish, jumladan, Internetga keng polosali ulanish xizmatlarini kengaytirish va yangi ma'lumotlarni qayta ishlash markazlarini qurish uchun investitsiyalar keng jalb etilmoqda. Mazkur yo'nalishda yangi faoliyatni yo'lga qo'yanlar uchun soliq imtiyozlari va qulay sharoitlar yaratish orqali hukumat AKT sohasini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlamoqda. Bu, xususan, O'zbekistonda ko'plab yosh tadbirkorlar va innovatsion startaplar bilan boy bo'lgan jonli, zamonaviy AKT ekotizimini yaratishga yordam berdi.

Raqamlarni ko'radigan bo'lsak, 2019-2023 yillarda aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmi 3 barobar oshib, 2023 yilda uning hajmi 22,9 trln. so'm yetdi va 2019 yilga nisbatan 14,7 trln. so'mga oshdi.

O'zbekiston bozorida uyali aloqa xizmatlarini "Unitel" MCHJ ("Beeline" savdo belgisi), "Universal Mobile Systems" MCHJ (UMS savdo belgisi), PWC qo'shma korxonasi (Perfectum Mobile savdo belgisi), yakka tartibdagi tadbirkor "Coscom" MCHJ ("Ucell" savdo belgisi) va "O'zbektelekom" AKning UzMobile filiali kabi kompaniyalar taqdim etadi.

2020 yildan boshlab yana bir uyali aloqa operatori, ya'ni 2016 yilda tashkil etilgan "Humans" xalqaro kompaniyalar guruhi tarkibiga kiruvchi "Humans" MCHJ faoliyat ko'rsata boshladi. Bu guruh faoliyati moliya sektori, telekommunikatsiyalar, axborot almashinuvi va tibbiyot sohalarida texnologik loyihalarni rivojlantirishga qaratilgan. Aloqa korxonalarining





1-rasm. Aloqa korxonalarining aloqa xizmatidan tushgan tushumi tarkibi (2023 yil yakunlari, %da)

aloqa xizmatidan tushgan tushumi tarkibini 1-rasmda ko'rishimiz mumkin. [7]

Demak, asosiy ulush mobil aloqa (jami aloqa xizmatlarining 37%) va «Internet» tarmog'i xizmatlari (jami aloqa xizmatlarining 36%) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shu o'rinda, boshqa yo'nalishlarda muayyan hajmlar mavjud bo'lsada, e'tiborli jihati, raqamli texnologiyalarning kirib kelishi oqibatida, maxsus aloqa, radio dasturlarini uzatish va qabul qilish hamda telegraf xizmatlari yildan-yilga kamayayotganligini ko'rish mumkin.

Xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes muhim o'rin tutadi. Xususan, 2024 yil boshida xizmat ko'rsatish va servis sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'yektlari soni qariyb 277,1 mingtaga yetdi. 2023 yilda kichik biznes sub'yektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 224,4 trln. so'mni (2019 yilda – 103,1 trln. so'm) va ishlab chiqarilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 47,7% ni tashkil etdi.

Ayni paytda O'zbekistonda xizmatlarning yangi turlari faol rivojlanmoqda, ularning hudud iqtisodiyoti, birinchi navbatda, shahar aglomeratsiyalari uchun ahamiyati sezilarli darajada oshdi.

Xususan, bugungi kunda elektron banking

¹ Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi: <https://stat.uz/uz/>

va onlayn xaridlar hayotimizning ajralmas qismini tashkil etmoqda.

Zamonaviy axborot olamida internet, logistika, elektron to'lov tizimlari va elektron hujjat aylanishining paydo bo'lishi va keng tarqalishi natijasida faoliyatning yangi shakli – elektron tijorat faol rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 29 sentyabrdagi O'RQ-792-son Qonunining yangi tahririga muvofiq, elektron tijorat – bu tadbirkorlik faoliyatining bir qismi sifatida axborot tizimlaridan foydalanilgan holda, elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oldi-sotdisidir [4].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Kovid-19 va elektron tijorat. Asosiy qoidalar. Jeneva, 2021»² Global Sharhiga [16] asosanib, raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat Barqaror rivojlantirish maqsadlariga (BRM) erishishga qaratilgan sa'y-harakatlarda tobora muhim o'rin tutib, yangi imkoniyatlar va yangi chaqiriqlarni keltirib chiqarmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ishlab chiqarish, iste'mol qilish, tovarlar va xizmatlar almashinuvi usullariga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, 2020 yil boshidagi Kovid-19 pandemiyasi raqamli transformatsiyaning tezlashishiga olib keldi. Raqamli yechimlar odamlar va korxonalar

² Jahon savdo va rivojlanish tashkilotining (YUNKTAD) 2021 yil uchun global sharhi // <https://etradeforall.org/>

larga iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatlarining bir qismini masofadan turib davom ettirish imkonini beruvchi vositaga aylandi. Bu masofaviy ishlash, videokonferensiya, raqamli ko'ngilochar va boshqa ilovalardan foydalanishning ko'payishiga olib keldi. Bu ham elektron tijoratning keskin o'sishiga olib keldi. Natijada, yalpi qo'shilgan qiymatdagi elektron tijorat ulushi 2019 yildagi 0,05 % dan dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra 2023 yilda 1,16 % gacha oshdi.

Bozorda yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi bilan ularni yanada to'liq va sifatli hisobga olish uchun samarali monitoringni yuritish zarurati paydo bo'ldi.

Demak, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 2023 yilda haydovchilarga buyurtmalar berish xizmatlarini (masalan, transport buyurtmalarini taqdim etish) hisobga olgan holda dispetcherlik xizmatlari hajmi 174,1 mlrd. so'm, ularning omborxon va yordamchi transport xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi (8830,3 mlrd. so'm) esa 2,0 % darajasida qayd etildi.

Keytering xizmatlari (ovqatlanish uzoq joylarda ovqatlanishni tashkil etish bo'yicha kompleks xizmat) hajmi 2023 yilda 105,1 mlrd. so'mni yoki oziq-ovqat va ichimliklarni taqdim etish bo'yicha bozor xizmatlari umumiy hajmining (10860,9 mlrd. so'm) 1,0 % ini tashkil etdi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 2023 yilda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida axborot sohasida quyidagi xizmatlar turlari (2516,0 mlrd. so'm) tashkil etildi:

- kopirayter, reraier, SEO-kopirayter (search engine optimization), SEO-reraier (search engine optimization), kontent-menejer, spichrayter, transkriber xizmatlari – 14,4 mlrd. so'm yoki 0,6 %;

- elektron savdo maydonchalarini tashkil etish xizmatlari, shu jumladan elektron tijorat uchun – 77,7 mlrd. so'm yoki 3,1 %;

- yuridik shaxslar tomonidan ko'rsatilgan elektron hujjat aylanishi xizmatlari – 63,3 mlrd. so'm yoki 2,5 %.

PR-menejer (public relations), ijtimoiy tarmoqlarda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) reklama qilish bo'yicha internet-marketolog, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar ma'muri, akkaunt-menejer, marketolog, havola menejeri, targetolog, kontekstli reklama bo'yicha mutaxassis, direktolog, media-rejalovchisi, SMO-mutaxassisi (Social media optimization) kabi mutaxassisliklar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 2023 yilda 67,4 mlrd. so'mga yetdi yoki reklama va bozorni o'rganish sohasida ko'rsatilgan

bozor xizmatlari umumiy hajmining 4,6 %ini (1472,2 mlrd. so'm) tashkil etdi.

Profiler bozorida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 0,3 mlrd. so'mni yoki kasbiy, ilmiy, texnik xizmatlar umumiy hajmining (1 trln. 0,9 mlrd. so'm) 0,03 %ini tashkil etadi va hokazo.

Ko'rsatilgan bozor veterinariya xizmatlarining umumiy hajmida (63,3 mlrd. so'm) hayvonlarni evtanaziya qilish xizmatlari 2,4 mlrd. so'mni yoki 3,7 %ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan karshering bozori xizmatlari hajmi 25,7 mlrd. so'mga yoki yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish va lizing xizmatlari (3424,1 mlrd. so'm) umumiy hajmining 0,8 %iga teng bo'ldi.

Internet-loyihalar bilan ishlash bo'yicha menejer, frilanserlar guruhi rahbari, inson resurslari menejeri (HR) va ishga yollovchi (rekruiter) xizmatlari 76,0 mlrd. so'mni yoki bandlik xizmatlari (543,8 mlrd. so'm) umumiy hajmining 14,0 % ini tashkil etdi.

Ma'muriy, boshqaruv, iqtisodiy va boshqa yordamchi xizmatlar sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida (3092,0 mlrd. so'm), elektron konferensiyalar, seminarlar (vebinarlar), shu jumladan, onlayn tarzda tashkil etish xizmatlari 7,2 mlrd. so'm yoki 0,2 %ga teng bo'ldi.

Elektron til maktablari tomonidan, jumladan, onlayn tarzda ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari hajmi 1,3 mlrd. so'mni yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar (15858,4 mlrd. so'm) umumiy hajmining 0,01 %ini tashkil etadi.

Xalq tabobati xizmatlari (lisenziya asosida) 15,0 mlrd. so'm yoki sog'liqni saqlash xizmatlari (6613,1 mlrd. so'm) umumiy hajmining 0,2 %iga teng bo'ldi.

Boshqa guruhlar tarkibiga kirmagan yakka tartibdagi xizmatlar bozorining umumiy hajmida (2075,1 mlrd. so'm):

- uy hayvonlari uchun mehmonxonalar (o'tirish) xizmatlari — 1,5 mlrd. so'm yoki 0,1 %ni;

- avtomobilni mijoz tomonidan belgilangan joyga yetkazib berish xizmatlari (valet parking) – 0,6 mlrd. so'm yoki 0,03 %ni tashkil etdi.

Shak-shubhasiz, xizmatlar sohasi nafaqat mamlakatning makroiqtisodiy taraqqiyotini, balki iqtisodiyot tarmoqlarining barchasini rivojlanishiga turtki bo'lib hisoblanadi, shuningdek, xalqaro bozorga kirishda ijobiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilar butun jahonda yuz berayotgan tendensiyalar, ayniqsa Kovid-19 pandemiyasidan keyin jadal rivojlanayotgan xizmatlarning yangi turlari O'zbekiston bozoriga ham kirib kelayotgani, bu esa, iqtisodiy rivojlanish

strategiyalari, maqsadli dasturlar va xizmatlar sohasini rivojlantirish borasidagi qarorlar qabul qilishda alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini milliy iqtisodiyot bilan uyg'un tarzda rivojlantirish barobarida, raqamlashtirish va yangi chaqiriqlarga javoban sohaga ko'maklashish masalalariga "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonida ham alohida e'tibor qaratilgan [3].

Xizmat sohasining keng ko'lamligi nuqtai-nazaridan mazkur strategiyaning deyarli barcha ustuvor yo'nalishlaridagi chora-tadbirlarning ijrosi xizmatlar sohasi bilan bog'liq bo'lib, pirovardida, bevosita yoki bilvosita uning rivojlanishiga olib keladi. Xususan, "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" deb nomlangan birinchi yo'nalish va "Barqaror iqtisodiy o'sish

orqali aholi farovonligini ta'minlash" deb nomlangan ikkinchi yo'nalishdagi deyarli barcha islohotlar, shuningdek, qolgan uchta yo'nalishlarda ham muayyan faoliyat natijalari bevosita xizmatlar sohasini rivojlantirishga turtki bo'lib xizmat qiladi, ya'ni bu yo'nalishlardagi islohotlar xizmatlar sohasi bilan chambarchas bog'liqlikda rivojlanib boradi.

Mazkur "O'zbekiston-2030" strategiyasida 102 ta xizmatlar sohasiga oid vazifalar belgilangan bo'lib, ular umumlashtirilgan holda quyidagi jadvalda aks ettirilgan (1-jadval).

Shu o'rinda, alohida yo'nalishlar bo'yicha bevosita xizmatlar sohasini rivojlantirish masalalarini qayd etib o'tish lozim. Jumladan, "Aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish" yo'nalishida qator tadbirlar belgilab qo'yilgan.

"Professional ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish" yo'nalishida

1-jadval.

"O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida xizmatlar sohasini rivojlantirishga qaratilgan asosiy vazifalar¹

Yo'nalish nomi	Islohotlar yo'nalishi soni	Maqsadlar soni	Samaradorlik ko'rsatkichlari (vazifalar) soni – jami	Shundan, xizmatlar sohasi bilan bog'liqlari
I. Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlarni yaratish	5	44	135	33
II. Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash	1	17	138	41
III. Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish	2	12	52	6
IV. Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmati-dagi davlat boshqaruvini tashkil etish	2	16	80	18
V. "Xavfsiz va tinchlik-sevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish	2	11	40	4
JAMI	12	100	445	102

ijtimoiy himoya qilish tizimi bilan muhtojlarning barchasini to'liq qamrab olinishiga erishish, ijtimoiy xizmatlarni majmuaviy amalga oshirish uchun respublikaning barcha tuman va shaharlarida "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyatini tashkil qilish vazifalari belgilangan.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizimni yaratish hamda ular uchun qulay va maqbul muhitni yaratish maqsadida nogironligi bo'lgan muhtoj shaxslarni reabilitatsiya xizmatlari bilan to'liq qamrab olish hamda "To'siqsiz turizm" dasturi doir

¹ Muallif ishlanmasi

rasida har bir viloyatdan yiliga 1000 nafardan nogironligi bo'lgan shaxslarning Samarqand, Buxoro va Xivaga bepul sayohatlarini tashkil qilish vazifalarini qo'yilgan.

Yoshlar o'rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish yo'nalishida IT sohasida 300 ming nafar yoshlarni ish bilan ta'minlash, maktab o'quvchilarini xalqaro IT bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasblarga o'rgatish, "Bir million dasturchi" loyihasini kengaytirish va har yili 15 ming nafar eng iqtidorli yoshlarni nufuzli xalqaro kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash vazifalari soha mutaxassislariga belgilab berilgan.

O'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni rivojlantirish yo'nalishida ham belgilab berilgan qator vazifalar, mazkur yo'nalishda xizmatlar sohasining rivojagi turtki bo'ladi.

Iqtisodiy yo'nalish, ya'ni 2030 yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "dromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish yo'nalishida asosiy qatorida pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini o'zaro muvofiqlashtirish hamda tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish orqali 2030 yilga borib yillik inflyatsiyani 5-6 % darajasida ta'minlash vazifasi belgilangan. Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish yo'nalishida ham qator vazifalar belgilab qo'yilgan.

Mamlakatning global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish yo'nalishida bevosita xizmatlar sohasi bilan bog'liq bo'lgan vazifalar, ya'ni respublika hududi orqali tranzit yuklarini tashish hajmini 16 mln. tonnaga yetkazish, Shimoliy yo'nalishda temir-yo'l orqali yuk tashish muddatlarini 40 %ga qisqartirish, yo'lovchi va yuk tashish xizmatlari hajmini 3 barobar oshirish, elektrlashgan temir-yo'llari ulushini 65 %ga yetkazish, aviaqatnovlar sonini 4 barobarga oshirish, temiryo'l, havo yo'llari transportida yo'lovchi va yuk tashish xizmatlari tariflari shakllanishida bozor tamoyillariga o'tish hamda sohaga xususiy va xorijiy operatorlarni jalb qilish, shahar va tumanlarni jamoat transporti bilan to'liq qamrab olish, yangi avtobuslar sonini 5 mingtaga va elektrobuslar sonini 2 mingtaga yetkazish, Toshkent – Samarqand, Samarqand –

Navoiy – Buxoro yo'nalishlarida yangi tezyurar temir-yo'llarini qurish, tezyurar poyezdlarda yo'lovchi tashish sonini 2,5 barobar ko'paytirish kabi va boshqa bir qator vazifalar aniq belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilib (59-band), bu yo'nalishda ham qator vazifalar belgilab qo'yilgan. Boshqa yo'nalishlarda, jumladan, temir-yo'lda tashish, avtomobil yo'llarini qurish va boshqarish, gaz va elektr yetkazib berish xizmatlarini xususiy sektorga olib berish, tadbirkorlik sub'yektlariga barcha xizmatlarni "Yagona darcha" tamoyili asosida onlayn portal orqali ko'rsatish va xizmat ko'rsatish vaqtini o'rtacha 3 barobarga qisqartirish, IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini 5 mlrd. dollarga yetkazish, IT-park rezidentlari sonini 10 barobar oshirish, ular tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2,2 %ga va ularda yaratilgan ish o'rinlari sonini 100 mingtaga yetkazish, turizm xizmatlari eksportini 5 mlrd. dollarga, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 mlrd. dollarga yetkazish, jami 1000 dan ziyod elektr quvvatlash stansiyalari, ovqatlanish va hordiq chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalarini tashkil qilish kabi topshiriqlarni misol qilib keltirib o'tishimiz mumkin.

Xulosa

Demak, strategiyaning hayotimizga izchil joriy etilishi, shak-shubhasiz milliy iqtisodiyotimizning rivojlanishiga olib keladi va bunda xizmatlar sohasi alohida o'rin tutadi. Xizmat ko'rsatish sohasi yoki xizmat ko'rsatish infratuzilmasini (makrotizimini) statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish jarayonida, taklif etilayotgan "Davlat", "Xususiy-tijorat" va "Xususiy-notijorat" xizmat turlariga ajratgan holda, xususiyatlari va tansiflash mezonlariga muvofiq amalga oshirish makroiqtisodiy-statistik tahlillar sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, bugungi zamon tendensiyalaridan kelib chiqib, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari kabi, xizmatlar sohasiga ham raqamli texnologiyalarning kirib kelishi pirovardida sohada kuzatilayotgan jadal raqamlashtirish jarayonlari, tadqiqotlarda raqamli xizmat ko'rsatish yo'nalishiga istiqbolli yo'nalish sifatida alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Iqtisodiy fanlarning asosiy maktablari va

yo'nalishlari doirasida ko'rib chiqilgan, xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish tendensiyalari va bu yo'nalishdagi ilmiy yondashuvlarning tahlili asosida makroiqtisodiy inqiroz turiga qarab xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish strategiyalarini farqlash, raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi faoliyatini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari chuqur o'rganish, xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirishning intensiv jarayonlaridan kelib chiqadigan xavf-xatarlarni tizimlashtirish va maqbul yechimini ishlab chiqishni bugungi jadal sur'atlari bilan o'zgarib borayotgan davrning o'zi taqozo etadi.

Xizmatlar bozoriga yangi xizmat turlarining kirib kelishi, iste'molchilar ehtiyojlarining o'zgarib borishi va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va tezkorligiga bo'lgan talablarning ortib borish nuqtai-nazaridan, davr o'zgarishlariga moslashuvchan iqtisodiy tizimni yaratish, maqsadli va manzilli rivojlanish dasturlarini va strategiyalarni shakllantirishda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan makroiqtisodiy-statistik tahlillarni amalga oshirishda ilg'or xalqaro andozalarni inobatga olgan holda o'ziga hos milliy yondashuvni ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish zarurati bugungi kundagi ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarining asosiylaridan biri sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-maydagi "2012-2016-yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi PQ-1754-son qarori // <https://lex.uz/docs/2011220>.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "'O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/6600413>.

4.O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentyabrdagi "Elektron tijorat to'g'risida" O'RBQ-792-son Qonuni // <https://lex.uz/uz/docs/6213382>.

5.Mirziyoyev Sh.Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.T: "O'zbekiston". 2017.- 34 b.

6.Xusanov, M.C. (2024). Mamlakat iqtisodiyotida sog'liqni saqlash xizmatlari rolining iqtisodiy-statistik tahlil qilish. Akademicheskiy issledovaniya v sovremennoy nauke, 3(12), 117-121.

7.Axunova G.N. Ta'lim xizmatlari bozorida marketing faoliyati va uni takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi, 2004 y.

8.Xusanov, M.C. (2024). Milliy iqtisodiyotda xizmatlar sohasi rolining iqtisodiy-statistik tahlil qilish. Economics and Innovative Technologies, 12(2), 209-221.

9.Goroxova P.A. Strategicheskoye upravleniye ekonomicheskimi sistemami sferuy uslug. Dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. Sankt-Peterburg, 2022.

10. Xusanov, M.C. (2024). Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, 7-son, 46-53 b.

11. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/>.

12. Xusanov, M. S. (2024). Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini statistik tahlil qilish. Kokand University Research Base, 974-978.

13. Khusanov, M. S. (2024). Medium and Long Term Macroeconomic Forecast of the Development of the Services Sector. European journal of business startups and open society, 4(7), 58-64.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi maxsus axborot portali: <https://www.stat.uz/uz/>.

15. UNSD. World Annual Report. NY., 2021. P.273.

16. Jahon savdo va rivojlanish tashkilotining (YUNKTAD) 2021-yil uchun global sharhi // <https://etradeforall.org/>.

17. Бегалов Б.А., Мамадалиев О.Т., Анализ тенденций экономического роста Республики Узбекистан, «Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning statistik tahlilini takomillashtirishning nazariy va uslubiy jihatlari», xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti, Tokshent, 27 may 2022 y., I-tom.